

O‘RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN YUK VA TIJORAT ISHLARI ASOSLARI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Yuk va tijorat ishlari asoslari fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me’yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me’yoriy asoslar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi “**Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Yuk va tijorat ishlari asoslari

1. Yuk va tijorat ishlarini tashkil etishning umumiy asoslari va huquqiy me’yorlari
2. Yuk tashishlarni rejalashtirish va prognozlash
3. Yuk stansiyalarida va yuk xo‘jaligida bajariladigan tijorat operatsiyalari
4. Tariflar, tashish haqlari va transport shartnomalari
5. Tijorat ishlarining hisobi, nazorati va da’volarni yuritish

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Yuk va tijorat ishlarini tashkil etishning umumiy asoslari va huquqiy me'yorlari	Yuk va tijorat ishlarini samarali va qonuniy tashkil etish, yuk tashish jarayonlarini rejalashtirish, tashish vositalaridan foydalanish va ularni ekspluatatsiya qilish tartiblarini o'rganish, transport-logistika operatsiyalarini huquqiy me'yorlar va xavfsizlik talablariga muvofiq tashkil etish, yuklarni qadoqlash, yuklash va tushirish jarayonlarida texnologik va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash, yuk tashishning turli turlari (temiryo'l, avtomobil, havo, dengiz) bo'yicha standartlar va normativ hujjatlarni hisobga olish, tijorat faoliyatida huquqiy asoslar va me'yoriy hujjatlarni qo'llash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish, innovatsion metod va vositalardan foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish, yuk tashish va tijorat jarayonlarini optimallashtirish bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish lozim.	25 %	10 ta
2	Yuk tashishlarni rejalashtirish va prognozlash	Yuk tashish jarayonlarini samarali tashkil etish maqsadida transport-logistika operatsiyalarini rejalashtirish va prognozlashni chuqur o'rganish, yuk harakati hajmi, yo'nalishlari va transport vositalaridan foydalanish samaradorligini baholash, turli transport turlarini (temiryo'l, avtomobil, havo, dengiz) integratsiyalashgan tizimda qo'llash imkoniyatlarini tahlil qilish, transport resurslarini optimallashtirish va xarajatlarni kamaytirish bo'yicha iqtisodiy va texnologik asoslarni hisobga olish, transport faoliyatida mavjud me'yoriy hujjatlar, standartlar va xavfsizlik talablarini inobatga olgan holda prognozlash va rejalashtirish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish, innovatsion metod va vositalardan foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish, transport-logistika tizimining barqaror va samarali ishlashini ta'minlash uchun zarur nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish lozim.	5 %	2 ta
3	Yuk stansiyalarida va yuk xo'jaligida bajariladigan	Yuk stansiyalari va yuk xo'jaligida tijorat operatsiyalarini samarali tashkil etish maqsadida yuklarni qabul qilish, jo'natish va saqlash jarayonlarini rejalashtirish va nazorat qilishni	32.5 %	13 ta

	tijorat operatsiyalari	chuqur o'rganish, yuk hajmi, yo'nalishlari, turli transport turlari va ombor resurslaridan foydalanish samaradorligini baholash, transport-logistika tizimida integratsiyalashgan yechimlarni tatbiq etish imkoniyatlarini tahlil qilish, operatsion xarajatlarni kamaytirish va xizmat sifatini oshirish bo'yicha iqtisodiy va texnologik asoslarni hisobga olish, tijorat shartnomalari, tariflar va qonunchilik talablarini inobatga olgan holda operatsiyalarni rejalashtirish va nazorat qilish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish, innovatsion vositalar va avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish, yuk stansiyalari va yuk xo'jaligi faoliyatining barqaror va samarali ishlashini ta'minlash uchun zarur nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish lozim.		
4	Tariflar, tashish haqlari va transport shartnomalari	Tariflar, tashish haqlari va transport shartnomalari bo'limida tijorat operatsiyalarini samarali tashkil etish maqsadida transport tariflari va tashish haqlarini hisoblash, turli transport turlari uchun tarif siyosatini tahlil qilish, yuk tashish shartnomalari va transport hujjatlarini tuzish hamda nazorat qilish jarayonlarini chuqur o'rganish, transport xizmatlari bo'yicha iqtisodiy va normativ asoslarni hisobga olish, xarajatlarni optimallashtirish va xizmat sifatini oshirish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish, innovatsion metodlar va elektron transport tizimlaridan foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish, transport-logistika tizimida tariflar va shartnomalarni samarali qo'llash orqali barqaror va qonuniy faoliyatni ta'minlash uchun zarur nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish lozim.	20 %	8 ta
5	Tijorat ishlarining hisobi, nazorati va da'volarni yuritish	Tijorat ishlarining hisobi, nazorati va da'volarni yuritish bo'limida tijorat operatsiyalarini samarali tashkil etish maqsadida yuk tashish va transport xizmatlari bo'yicha hisob-kitoblarni yuritish, moliyaviy va operatsion hisobotlarni tayyorlash, xizmatlar bo'yicha to'lovlarni nazorat qilish, shuningdek, mijozlar bilan kelib chiqadigan da'volar va nizolarni tahlil qilish hamda hal etish jarayonlarini chuqur o'rganish, me'yoriy hujjatlar	17,5 %	7 ta

		va standartlar asosida hisob-kitob va nazorat tizimlarini tashkil etish, xarajatlarni optimallashtirish va moliyaviy samaradorlikni oshirish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish, elektron tizimlar va innovatsion vositalardan foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish, tijorat ishlarining barqaror, qonuniy va samarali yuritilishini ta'minlash uchun zarur nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish lozim.		
--	--	---	--	--

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarini eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	25 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	55 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O.S. Turdimatov., D.R. Umarova Kommersiya ishlari asoslari Toshkent 2012 y.
2. O.S. Turdimatov., N.N. Ibragimov. Yuk va yo'lovchilarni tashishni tashkil qilish. Tashkent, 2007 y.
3. M.X.Rasulov., G.A. Mirzaeva. Temir yo'l transportida harakatni tashkil qilish va boshqarish. Tashkent, 2007 y.
4. S.X. Xusanov., A.SH.Shorustamov. Temir yo'llar umumiy kursi. Toshkent, 2007 y.
5. D.S.Samikova., M.S. Baxtiyorova. "Temir yo'l bekatlari va tugunlari" fanidan kurs ishini bajarish uchun Uslubiy ko'rsatma Toshkent, 2018 y.
6. Martin Christopher logistics &supply chain..management © Pearson Education Limited 2011.
7. Транспортная логистика: учеб. / под общ. ред. Л. Б. Миротина. – 2-е изд. – М.: Экзамен, 2005. – 512 с.
8. Николашин, В. М. Основы логистики: учеб. для вузов ж.-д. трансп. / В. М. Николашин, А. С. Синитсина. – М.: ГОУ «Учебно-методический центр по образованию на ж/д транспорте», 2007. – 252 с.
9. Гаджинский, А. М. Логистика: учеб. для высш. и сред. спец. учеб. завед. / А. М. Гаджинский. – 5-е изд. – М.: Издательско-книготорговый центр «Маркетинг», 2002. – 408 с.
10. Аникин, Б. А. Коммерческая логистика / Б. А. Аникин, А. П. Тярухин. – М.: ТК Велби, 2005. – 432 с.